

## BADIIY GIMNASTIKA KIIYIMLARIGA BO‘LGAN EHTIYOJINI O‘RGANISH MAQSADIDA OLIB BORILGAN MARKETING TADQIQOTLARI TAHLILI

*Rayimberdiyeva Dilrabo Xabibillayevna,  
Xusainova Xusnida<sup>1</sup>*

*Namangan to‘qimachilik sanoati instituti*

*[d.rayimberdiyeva78@gmail.com](mailto:d.rayimberdiyeva78@gmail.com) [xusnidaxonxusainova@gmail.com](mailto:xusnidaxonxusainova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Namangan viloyatidagi “Olimpiya sport zahiralari” maktabidagi sportchi qizlarning onalari hamda murabbiylaridan bolalar sport kiyimlarini yangi eskiz model na‘munalarini ishlab chiqarish uchun so‘rovnoma tahlil natijalari gistogrammalarda keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** sport kiyimi, yeng, yoqa, yubka, gazlama, bezak.

Respublikamizda judayam ko‘p sport muassasalari faoliyat ko‘rsatadi. Ularning asosiy vazifalari berilgan sport turini mamlakatda rivojlantirish va ko‘plab yutuqlarga erishishdan iborat. Sport kiyimi deb, har-xil sport turlari bilan shug‘ullanish uchun ko‘zlangan, sportchi badanini zarbdan himoya qila oladigan va yuqori sport natijalarga erishishga ko‘mak beradigan kiyim tushuniladi.

Sportning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib, qaysi sport turi bilan shug‘ullanish kerakligini bolaning yoshiga qarab tanlash kerak. Bolalarga turli yoshda turli sport mashg‘ulotlari yoqadi. Ularni to‘g‘ri harakatlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kerakli sport turlari bilan shug‘ullanishga imkon berish lozim. Bunda 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun badiiy gimnastika sport turi eng yaxshi yechim hisoblanadi. Shu bilan birga, bolaning ma‘lum bir yosh uchun mo‘ljallangan sport turlari bilan ham shug‘ullantirish kerak. Bu nafaqat kelajakdagi yutuqlar uchun, balki bolaning sog‘lom rivojlanishi uchun ham zarur. Bolalar sportini rivojlanishi bilan bir qatorda, sport kiyimlarini ishlab chiqarish ham jadal suratlar bilan o‘sib bormoqda.


O‘zbekistonda kelgusida jamiyatimiz hamda mamlakatimizni yanada jadal rivojlantirishning kafolati bo‘lgan yoshlarga alohida e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi aniq maqsadga qaratilgan ishlar bolalarni sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish imkonini bermoqda. Sportning har bir turi alohida kiyimlari, sport poyabzali va sport anjomlarini talab qiladi. Ularga bo‘lgan ehtiyoj sport kiyimlarini tayyorlash uchun yaxlit ishlab chiqarish obyektlari tarmog‘ini tashkil qilish va bu, o‘z navbatida, trikotaj sanoatini yanada rivojlantirishni taqozo etadi.

Ko‘plab korxonalar ichki bozorlarni sifatli sport kiyim assortimenti bilan taminlab kelishi tabiiy holat hisoblanadi. Bolalar sport kiyim turlarini ko‘payishi yosh

avlod uchun juda muhim hisoblanib, ularni kelgusi yutuqlari va kamol topishlari uchun ahamiyatli hisoblanadi. Sport kiyimlarining tashqi ko‘rinishi jahon modelyerlari tomonidan yangilanib o‘zgacha ko‘rinish va o‘zgacha dizaynga ega bo‘layotganligini ijtimoiy tarmoqlarda ham ko‘rishimiz mumkin .

Ilmiy tadqiqot ishini asosiy maqsadi, istemolchilar talablarini o‘rganish va ularni tahlili asosida zamonaviy moda yo‘nalishidagi qulay badiiy gimnastika kiyimlarini yaratishdan iborat.


Bolalar sport kiyimlarini dastlabki loyihalash ishlarini tayyorlashda 4-12-yoshli maktab o‘quvchilari o‘rtasida Namangan va Andijon viloyatlaridagi Olimpiya sport maktablarining badiiy gimnastika sport turi bilan shug‘ullanib kelayotgan sportchi qizlar va ularni ota-onalari hamda, murabbiylari o‘rtasida sport kiyimlariga bo‘lgan talab, extiyoj, qiziqish, xohishlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Tahlillar natijalari quyidagi gistogrammalarda keltirilgan.



**1-rasm.** Badiiy gimnastika sportida qanday kiyim to‘plami bo‘lishini hohlaysiz tanlovi natijasi.


Yuqorida bolalarning sevimli mashg‘ulotiga aylangan badiiy gimnastika sport turi bilan qizlar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasining eng yuqori foizini kupalnik kiyimi egalladi va uning ko‘rsatgichi 83% ni tashkil etdi (1-rasm).

Gimnastika kiyimida yeng uzunligi aniqlashda iste‘molchilarning aksariyati maktab yoshidagi bolalar ekanligini hisobga olib, o‘tkazilgan mavsum tanlovi so‘rovnomasida sport kiyimining bahor-kuz mavsumi uchun tayyorlanishida sportchining xohishi 79 % ni tashkil etadi (2-rasm).




**2-rasm.** Badiiy gimnastika kiyimida yeng uzunligi bo'yicha o'tkazilgan tanlov natijasi.

Gimnastika kiyimida yeng uzunligi aniqlashda iste'molchilarning aksariyati yengi uzun bo'lishini xohlashdi (2-rasm).



**3-rasm.** Badiiy gimnastika kiyimida yoqaga bo'lgan ehtiyoj bo'yicha so'rovnoma natijasi

Tik yoqaga bo'lgan ehtiyoj qayiqsimon va yoqasizga nisbatan yuqori ko'rsatkichni berdi (3-rasm).



**4-rasm.** Qulaylik bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijasi.

Respondentlarni talablariga ko'ra trusik qomatga mos emasligi xarakterlanayotgan son qismiga jarohat yetkazganligi sababli noqulaylik keltiradi (4-rasm).



**5-rasm.** Chok mustahkamligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasi


Badiiy gimnastika sport trusigining kengayib ketishiga e'tiroz (4-rasm) yuqori ko'rsatkichni berdi. Shuning uchun ko'proq trusikning chetki choklari mustahkamligini oshirish kerakligi talab etildi (5-rasm).





**6-rasm.** Gazlamaga ehtiyoj natijalari

Badiiy gimnastika kiyimiga qanday bezaklar berilishini xohlaysiz deb berilgan savolga respondentlarning ko'pchiligi bifleks va gipyur matolariga nisbatan vilyur matosini arzonligi uchun vilyurga talab yuqori ko'rsatkichni berdi (6-rasm).



**7-rasm.** Kiyim bezagi bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

Badiiy gimnastika kiyimiga 10,5 mm, 8,7 mm, 7,3 mm, 6,6 mm, 4,8 mm, 4,0 mm, 3,2 mm, 2,9 mm, 2,5 mm, 2,0 mm, 1,8 mm, 1,6 mm, 1,8 mm dagi savorovskiy xrustal toshlar yordamida bezak beriladi. Shuning uchun munchoq va durlarga nisbatan savorovskiy-xrustal toshlarga talab ancha yuqoriligini 7-gistogrammadan ko'rishimiz mumkin (7-rasm).

Xulosa qilib aytganda olib borilgan marketing tadqiqotlarining natijasiga ko'ra yakka buyurtma asosida savorovskiy yoki xrustal toshlar bilan bezatilgan yengi uzun va tik yoqali kiyim modellarini ishlab chiqarish vazifasi belgilab olindi.

Yakka buyurtma asosida ishlab chiqariladigan badiiy gimnastika kiyimlari qimmat bo‘lganligi, shaklini tez yo‘qotib choklar o‘rnidan so‘kilib ketish va iplarni uzilib ketishi holatini oldini olish maqsadida navbatdagi bo‘limda gazlama shuningdek, keyingi bo‘limda iplarning deformatsion xususiyatlarini tajriba sinovdan o‘tkazish va nazariy tahlil qilish vazifasi belgilab olindi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. [Rayimberdiyeva D.X.](#) Badiiy gimnastika yubka asos chizmasini yangi dizayn loyihasini yaratish // Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi 2022 yil, maxsus son.
2. D.Rayimberdiyeva, R.Ergasheva, D.Xakimov, D.Yusupova “Study and Analysis Of Elasticity Of Fabrics For The Production Of Rhythmic Gymnastic Clothes” Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry and Ways to Solve Them (PTLICISIWS-2022) Volume 2789 pages:040044.
3. D.X.Rayimberdiyeva, R.A.Ergasheva B.Q.Solijanova “Badiiy gimnastika kiyimlari yangi dizayn loyihalarini yaratish” Fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi sharoitida to‘qimachilik va yengil sanoatdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 5-6 may 2022 yil, Namangan.61-bet